

Xorazm viloyatida demografik holat

2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-aprel holatiga Xorazm viloyatining doimiy aholisi soni **2 039,6** ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **1,8** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni **9,5** ming nafarni, vafot etganlar **2,2** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **7,3** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **4** kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **30** kishini, qayd etilgan nikohlar **4,5** mingtani, nikohdan ajralishlar **0,5** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	2 039,6	ming kishi
Tug'ilganlar soni	9,5	ming kishi
Vafot etganlar soni	2,2	ming kishi
Xorijdan ko'chib kelganlar	4	kishi
Xorijga ko'chib ketganlar	30	kishi
Nikohlar soni	4,5	ming birlik
Nikohdan ajralishlar soni	0,5	ming birlik

II. Doimiy aholi soni


Xorazm viloyatida doimiy aholi soni 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra **2 039,6** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **36,8** ming kishiga yoki **1,8** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **672,0** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **32,9%**), qishloq joylarda esa **1 367,6** ming kishi (**67,1%**) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 018,4** ming kishini (**49,9%**), erkaklar esa **1 021,2** ming kishini (**50,1%**) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	2 002,8	2 039,6	101,8
Urganch sh.	153,8	156,1	101,5
Xiva sh.	99,0	100,3	101,3
Bog'ot	176,7	180,2	102,0
Gurlan	157,8	160,5	101,7
Qo'shko'pir	182,7	185,8	101,7
Urganch	214,5	219,7	102,4
Hazorasp	206,8	210,8	101,9
Tuproqqal'a	59,7	60,9	102,0
Xonqa	199,1	202,6	101,8
Xiva	155,4	158,8	102,2
Shovot	181,0	184,2	101,8
Yangiariq	123,5	125,5	101,6
Yangibozor	92,8	94,2	101,5

Xorazm viloyatida 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **337,0** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **6,1** kishiga ortgan (2024-yil 1-aprel holatiga 1 kv.km.ga **330,9** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **9,5** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **18,9** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **2,2** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,2** ming nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **9,5** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **4,9** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,6%**), qiz bolalar soni **4,6** ming kishini (**48,4%**) va shahar joylarida **3,1** ming kishini (**32,6%**), qishloq joylarida **6,4** ming kishini (**67,4%**) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **2,2** ming kishini, shundan erkaklar **1,2** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **54,5%**), ayollar **1,0** ming kishini (**45,5%**) va shahar joylarida **0,8** ming kishini (**36,4%**), qishloq joylarida **1,4** ming kishini (**63,6%**) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni **4,5** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **8,9** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,5** ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **0,5** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,0** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan o'zgarmagan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **4,5** ming birlikni, shundan shahar joylarida **1,3** ming birlikni (**28,9%**), qishloq joylarida **3,2** ming birlikni (**71,1%**) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **0,5** ming birlikni, shundan shahar joylarida **0,2** ming birlikni (**40,0%**), qishloq joylarida **0,3** ming birlikni (**60,0%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **3 413** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **3 409** kishini, xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar **4** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **3 551** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **3 521** kishini, xorijiy davlatlarga ko'chib ketganlar **30** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Xorazm viloyati	3 413	3409	4	3 551	3521	30
Urganch sh.	876	872	4	959	949	10
Xiva sh.	155	155	-	256	256	
Bog'ot	89	89	-	131	131	
Gurlan	152	152	-	163	156	7
Qo'shko'pir	164	164	-	229	229	
Urganch	1 004	1 004	-	469	459	10
Hazorasp	145	145	-	259	259	
Tuproqqal'a	170	170	-	127	125	2
Xonqa	127	127	-	199	199	
Xiva	266	266	-	294	294	
Shovot	95	95	-	183	182	1
Yangiariq	106	106	-	128	128	
Yangibozor	64	64	-	154	154	

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Tel:
(62)224-65-08

Manzil: Urganch shahar
Al-Xorazmiy ko'chasi, 93-uy